

**MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSALARIDA RAQAMLI ELEKTRON
TA'LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA DARS
TEXNOLOGIYASINING TAHLILI.**

*Jabborov Yusufjon Yunusovich. Osiyo Xalqaro Universiteti Tibbiyot fakulteti
Rektor ish boshqaruvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishini rag'batlantirish va rag'batlantirishning puxta o'ylangan motivatsion mexanizmlar keltirilgan. Samarali ta'lim natijalariga erishishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar (Kahoot!, Wooflash, Mentimeter, Padlet, Socrative yoki Quizlet) orqali elektron ta'lim resurslarini yaratishni o'rgatish metodikasi ishlab chiqildi va ta'lim jarayonida qo'llanildi.

Kalit so'zlar: kommunikativ, __innovatsiya, [virtual dars](#), didaktik, kompetensiya, integratsiyasi, [metodika](#), individuallashtirish.
jabborov060996@gmail.com

**ТЕМА: АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИИ УРОКА НА ОСНОВЕ РАЗРАБОТКИ
ЦИФРОВЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ.**

*Жабборов Юсуфжон Юнусович. Ректор медицинского факультета
Азиатского международного университета.*

Аннотация: В данной статье представлены продуманные мотивационные механизмы стимулирования и стимулирования использования современных информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе. Современные педагогические программные средства, направленные на достижение эффективных

результатов обучения (Kahoot!, Wooflash, mentimeter, padlet, socrative или Quizlet) была разработана методика обучения созданию электронных образовательных ресурсов и применена в образовательном процессе.

Ключевые слова: коммуникативный, инновационный, виртуальный урок, дидактический, компетентностный, интеграция, методика, индивидуализация.

jabborov060996@gmail.com

TOPIC: ANALYSIS OF LESSON TECHNOLOGY BASED ON THE DEVELOPMENT OF DIGITAL E-LEARNING RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS.

Jabborov Yusufjon Yunusovich. The Rector is the head of the Faculty of Medicine, International University of Asia.

Abstract This article presents carefully thought-out motivational mechanisms for stimulating and stimulating the use of modern information and communication technologies in the educational process. Modern pedagogical software tools aimed at achieving effective educational results (Kahoot!, A methodology for teaching the creation of e-learning resources through Wooflash, Mentimeter, Padlet, Socratic or Quizlet) has been developed and applied in the educational process.

Key words: communicative, innovation, virtual lesson, didactic, competence, integration, methodology, individualization.

jabborov060996@gmail.com

Elektron ta'lim resurslarining innovatsion salohiyati, qo'llanilishining ko'p qirraliligi o'quv xonasida hal qilinadigan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi, bu esa o'qituvchiga ular asosida integratsiyalangan mualliflik ta'lim resursini yaratishga imkon beradi va uni ochishga olib keladi.

Bo'lajak muhandis-pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda umumta'lim fanlarining imkoniyatlari muhim rol egallaydi.

Shu bilan birga, har bir bo'lajak muhandis-pedagog mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanadi. Bo'lajak muhandis-pedagoglarning maxsus dasturlar va o'quv resurslari bilan ishlashlari yoki mustaqil ravishda o'quv mahsulotini yaratishlari mumkin (ijodiy ish, matn yoki multimedia insholari, modellashtirish muhitida yoki virtual laboratoriyada tadqiqotlar, loyihalar).

Kompyuter xonasida ishlashda deyarli barcha turdagi elektron ta'lim resurslaridan foydalanish mumkin. Kompyuterlarni internet tarmog'iga ulash bo'lajak muhandis-pedagoglarning ishlash imkoniyatlarini oshiradi. Elektron ta'lim resurslaridan ta'limning barcha bosqichlarida foydalanish mumkin. Biz tomonimizdan elektron ta'lim resurslarini yaratish bosqichlari ishlab chiqildi. Bizning "raqamli savodxonlik" tushunchasining terminologik ta'rifida "raqamli", "axborot", "ijtimoiy" va "qayta loyihalash" kabi to'rtta tushincha ko'p qo'llanilganligini alohida ta'kidlash joiz.

Dars mashg'ulotlari Brifing, SMART, Zinama-zina, Web-kvest kabi interfaol ta'lim metodlaridan keng foydalanilgan holda olib borildi. Ushbu ta'lim metodlari axborot-kommunikatsion texnologiyalariga tegishli fanlarni o'qitishga mo'ljallangan, kreativ ta'lim metodlari hisoblanadi. Ta'lim jarayoni ma'ruza mashg'ulotlarida elektron ta'lim resurslari, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida pedagogik dasturiy vositalardan ((Mentimeter, Padlet, Kahoot!, Wooflash, Socrative, Quizlet) dasturlash tillaridan, hamda ta'lim platformalaridan foydalanish asosida tashkil etildi. Axborot tizimlari (Hemis, Moodle) elektron pochta, chat, chat-forum, ISQ, IP-telefoniya, bloglar, videoblog, jonli jurnallar, vikipediya, interaktiv mediatexnologiya, onlayn videokonferensiya kabi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanildi.


Tadqiqot ishlarimiz davomida pedagogik tajriba sinovlarida qo'llanilgan va samaradorlikka erishishni ta'minlagan interfaol ta'lim metodlari va ularning imkoniyatlarini quyida qisqacha tavsiflashga harakat qilamiz.

“Brifing” ta’lim metodi. “Brifing”- (ing. briefing-qisqa degan ma’noni anglatadi) jarayon yoki hodisaga tegishli biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag’ishlangan qisqa press-konferensiya sifatida tavsiflash mumkin. Ta’lim jarayonida mazkur metodni o’tkazish bosqichlari quyidagicha: 1. Taqdimot qismi. 2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida). Brifing metodidan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o’yinlarning ma’lum bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag’ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo’ladi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o’tkazishda ham foydalanish yaxshi natija beradi.

Elektron ta’lim resurslarining “Nazorat bo’limi” bevosita tinglovchilarning bilimlarini sinovdan o’tkazishga yo’naltiriladi. Bo’limning amaliy xarakteri ta’lim oluvchilarni ilmiy va o’quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlashga yo’naltirishi, mustaqil ravishda o’z-o’zini baholash imkoniyatini ta’minlashi bilan belgilanadi.

Mazkur bo’lim malaka oshirish kurslari tinglovchilarini o’z-o’zini nazorat qilish, oraliq va yakuniy baholashga xizmat qiladi.

Bo’lim quyidagilardan tarkib topadi (1-rasm):



1-rasm. Elektron ta’lim resurslari «Nazorat bo’limi»ning tarkibiy tuzilmasi

Qo’shimcha ravishda elektron ta’lim resurslarida ma’lumotnoma hamda yordamchi materiallar, xususan, glossariy, qisqartma (abbreviatur)lar ro’yxati, o’quv moduli (fani)ni o’rganishda ko’p marta takrorlanadigan savollar hamda ularning javoblari, muhim manba (adabiyot)larning elektron variantlari, anketalar,

tipik vaziyat, masalalarning yechimlari hamda tinglovchilarning ijodiy ishlaridan namunalar, xrestomatiya va boshqalarni kiritish mumkin.

Elektron ta'lim resurslarida qo'shimcha ma'lumotnoma va yordamchi materiallarni berishda quyidagi holatga e'tibor qaratish lozim, ular elektron ta'lim resurslari bo'yicha taqdim etilgan asosiy ma'lumotlarga zid bo'lmasligi, bahslarni yuzaga keltirmasligi zarur.

Elektron shakldagi o'quv manbalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishining zamonaviy talablariga mos bo'lishi shart. Mazkur resurslarini ishlab chiqishda bu sohada dunyoning eng ilg'or mamlakatlari tajribalarini joriy etish, ular foydalanayotgan eng yangi dasturiy mahsulotlar, qo'llayotgan texnologiyalardan samarali foydalanish kerak. Elektron ta'lim resurslari shaxsiy kompyuterlarda, lokal tarmoqda va Internet orqali onlayn tizimida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak va shu o'rinda yuklanishi og'ir bo'lmasligi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. B.X.Shaymatov, B.S.Abdullaeva, M.Q.Jo'raev, "Elektr mashinalari", Buxoro: BMTI, 2022 y.-209 b.
2. M.Q.Jo'rayev, F.J.Xudoynazarov "Elektr mashinalari" fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari Maqola. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190
3. Jo'rayev M. Q. "Oliy ta'lim muassasalarining elektr energetika yo'nalishi talabalariga elektr mashinalari fanini hozirgi kunda o'qitish tahlili". Toshkent 2021 1-son 18 bet
4. Jo'rayev M. Q. "Elektr yuritmalari tezligini rostlash usullari" Ilmiy-nazariy va metodik jurnal Buxoro 2021, № 5 114 bet

5. Development of teaching methods in the field of "electrical machines" using new pedagogical technologies 1Jorayev M. K, 2Husenov D. R, 3Sharopov F.K. International Engineering Journal For Research & Development 584-586 p
6. Jo'rayev, M. Q., & Xudoynazarov, F. J. (2021). "Elektr mashinalari" fani Taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(11), 1184-1190. doi:10.24412/2181-1385-2021-11-1184-1190 bet
7. Jurayev Mirjalol Kahramonovich "Software analysis of electric machine science" ISSN:2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022 143P a g
8. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich "ELEKTR ENERGIYASINI EKSPLOATATSIYA QILISHDA TRANSFORMATORLARNING AHAMIYATI" "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995
9. Жўраев М.Қ. Электр юритмалар тезлигини ростлаш усуллари Педагогик маҳорат Илмий-назарий ва методологик журнал Бухоро 2021, №23, 114-118 б,(13.00.02)
10. Jo'rayev M. Q. Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137Vol.12,Issue09,September 2022 SJIF 2022=8.252 A peer reviewed journal<https://www.indianjournals.com>
11. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fanini o'qitish didaktik takomillashtirish jihatlari" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
12. Jo'rayev M. Q. Ilmiy konferensiya "Elektr mashinalari fani rivojlanish ginezisi va mazmuni" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION SCIENCESAND HUMANITIES International scientific-online conference 4nd part, 2-124 pages Part 4 September 29 CANADA <https://zenodo.org/record/7146065>
13. Jorayev Mirjalol Kahramonovich OPINIONS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS IN TEACHING THE SCIENCE OF ELECTRIC MACHINES 76-

80 British Journal of Global Ecology and Sustainable Development
<https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/317> ISSN (E): 2754-9291

14. Джураев Мирджалал Кахрамонович, Камалов Камал Малик угли «Синхронные машины», инновационные методы в обучении
<http://www.ijaretm.com/> ISSN:2349-0012

15. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li, Nizomov Nozimjon Zafar O'g'li, Kamolov Kamol Malik o'g'li “Qadoqlash sexidagi qo'llanilgan elektr yuritmani boshqarish blokini takomillashtirish orqali maxsulot namligini mo'tadil saqlash” <https://wordlyknowledge.uz/> ISSN : 2181-4341

16. Жўраев М.Қ., Software Analysis of Electric Machine Science, Research Jet Journal of Analysis and Invertions IF-7.6,
<https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/414> ISSN 2776-0960

17. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Jafarov Sobir Talab o'g'li “Methodology of teaching experimental work, organization of independent work in technical higher education institutions
<https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/192>

18. Jo'rayev, M. Q., Rashidov, H. H., & Murodov, A. O. (2023). Texnika oliy ta'lim muassalarida fanlarning amaliy ko'nikmalarni oshirishning qiyosiy tahlillari. Innovative development ineducational activities, 2(21), 4–11.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10138064>

19. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Po'latov Bexruz Zafarovich, Ravshanov Abbas Yashin o'g'li, Rashidov Hamrozbek Hayotovovich International conference pedagogical reforms and their solutions VOLUME1, ISSUE2, 2024
<https://worldlyjournals.com/index.php/PRS/article/view/860>

20. Jo'rayev Mirjalol Qahramonovich, Rashidov Hamrozbek Hayotovovich “Elektrotexnika va elektronika” fanini o'qitisha zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlili. ISSN 2181-4341. VOLUME 8, ISSUE 2, MARCH, 2024
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/1312>